

QISHLOQ XO‘JALIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

Bozorboyev Bektemir Nurquvvat o‘g‘li
Guliston davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur tezisda qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Qishloq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikdagi roli, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi ahamiyati hamda eksport salohiyati iqtisodiy va statistik usullar asosida o‘rganilgan. Tahlillar jarayonida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Grafik va jadvallar orqali real ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, qishloq xo‘jaligi sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy tahlil, yalpi ichki mahsulot (YAIM), bandlik, oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati, agrar sektor.*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, aholining bandligi va eksport salohiyatini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Agrar sektor faoliyatining samaradorligi umumiy iqtisodiy o‘shishning barqarorligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, global iqlim o‘zgarishlari va resurslar tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligida yuqori darajadagi boshqaruv, texnologik yangilanish va iqtisodiy tahlil asosida yondashuv zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va mehnat unumdorligini ta‘minlash orqali qishloq xo‘jaligi sohasining iqtisodiyotdagi real o‘rni va ta‘sirini chuqur tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur ilmiy ishda qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni iqtisodiy va statistik tahlillar asosida o‘rganilib, uning asosiy funksiyalari, rivojlanish yo‘nalishlari hamda mavjud muammolari yoritiladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi sektorining iqtisodiy barqarorlikka qo‘shayotgan hissasi va istiqbolli takliflar asosida uning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

NATIJA VA TAHLILLAR

2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti 393,2 trillion so‘mni tashkil etdi va o‘shish sur‘ati 2022-yilga nisbatan 104,1% ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 25,2% ini qamrab oldi, bu esa qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotdagi strategik o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi sohasida band bo‘lgan aholi soni 3,6 million kishidan oshgan, ya‘ni umumiy bandlikning qariyb 25-30% i bevosita

shu soha hissasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich agrar sektorning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Yiliga yetishtirilayotgan g'alla, paxta, sabzavot va meva-sabzavot mahsulotlari mamlakat ichki talabini to'liq qoplash bilan birga, eksport salohiyatini ham oshirmoqda. 2023-yilda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti \$1,5 milliard AQSH dollaridan oshdi, bu 2022-yilga nisbatan 12,3% ko'pdir. Eng yirik eksport mahsulotlari safiga meva-sabzavotlar, uzum, yong'oc, paxta va don mahsulotlari kiradi.

1-jadval. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida xarajatlar tarkibi (O'zbekiston, 2023-yil)

Xarajat turi	Ulushi (%)	Izoh
Urug' va o'g'itlar	29%	Hosildorlikni oshirish uchun asosiy resurs
Yoqilg'i va energiya sarfi	21%	Texnika va sug'orish tizimlarida ishlatiladi
Mehnat xarajatlari	18%	Ishchilar maoshi va vaqtinchalik ish kuchi
Texnika va jihozlar amortizatsiyasi	15%	Traktorlar, kombaynlar va boshqa jihozlarning eskirishi
Logistika va saqlash xarajatlari	10%	Hosilni yetkazish va saqlash uchun transport va ombor xarajatlari
Boshqa xarajatlar	7%	Sug'urta, soliqlar, konsalting xizmatlari va boshqalar
Jami	100%	

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy xarajatlar yer va suv resurslaridan foydalanish, urug'lik materiallari, yoqilg'i-moylash vositalari, o'g'itlar va texnik xizmat bilan bog'liq. Shu bilan birga, texnologik modernizatsiya darajasining pastligi, iqlimga bog'liqlik va logistik muammolar ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Soha yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, eksport salohiyati, aholining bandligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi roli bilan iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim:

- ilg'or texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish,
- suv va yer resurslaridan samarali foydalanish.

Shuningdek, boshqaruv hisobi vositalaridan keng foydalanish orqali xarajatlar tuzilmasini aniqlashtirish, ularni tahlil qilish va asosli rejalashtirish qishloq xo‘jaligi korxonalarining foydalilik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa sohaning umumiy iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlash va uning barqarorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma‘lumotlari – <https://stat.uz>
2. Chorshanbayev, U., & Muratjanova, L. (2024). Improving the methodology for using entrepreneurial activity in improving the well-being of the population. *Modern Science and Research*, 3(5), 475-483.
3. Umurzak, C., & Lobar, M. (2024). Economics of Transition to Innovation Economy in the Region Problems. *Miasto Przyszłości*, 52-56.
4. Chorshanbayev U., Suvanqulova Z. Texnologiyalarni qo'llash va xorijiy tillarni mukammal o'rgatish, ta'limda ustuvor islohotlar //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – T. 1. – №. 14. – С. 126-128.
5. Gulizahro, T. R., Maqsad, B., Elmurod, S., Firdavs, S., & Aziza, T. (2025). Boshqaruv hisobida hisob siyosati tashkil etish. *Fan va Tadqiqot Samaralari*, 2(3), 99-101.
6. Turayeva, G., Tilovbekova, A., Tursunkulova, D., & Abdujabborova, S. (2025). Ishlab chiqarishda zararsizlikni tahlil qilish. *Наука и инновация*, 3(14), 56-58.
7. Ходжиева, Г. Н. (2023). Организация учебного процесса в системе довузовской подготовки по иностранному языку в дистанционной форме. *Экономика и социум*, (4-1 (107)), 990-993.
8. Khodjieva, G. (2024). Analysis and comparison of linguistic features of gender communication on the example of Italian and Uzbek literature.
9. Norovna, X. G., & Sarvinov, S. (2025). Italian tilida artikllarning qo‘llanish usullari. *Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*, 2(5), 329-331.
10. Mardonova, R. (2022). Comparison Of Adjectives And Epithets. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.6 Philological sciences).
11. Юсупалиходжаева, С., Усмонов, Б., & Турдиев, А. (2021). Социальный статус у пациентов перенесших короновиральную инфекцию. *Актуальные проблемы стоматологии и челюстно-лицевой хирургии* 4, 1(01), 271-273.
12. Шукурова, У. А., & Бекжанова, О. Е. (2016). Показатели цитокинового профиля у больных красным плоским лишаем слизистой полости рта. *Знание*, (10-1), 67-70.